



**BOLALARDA O'TKIR GERPETIK STOMATIT.O'TKIR GERPETIK
STOMATIT ETIOLOGIYASI,EPIDEMIOLOGIYASI VA PATOGENEZI.
YENGIL,O'RTA-OG'IR,OG'IR SHAKLLARI.O'TKIR GERPETIK STOMATIT
KLINIK KECHISI,TASHXIS,DAVO CHORALARI**

*Fargona jamoat salomatligi tibbiyot insituti
Stomatologiya va Otorinolarinologiya fakulteti asistenti*

Odiljonova Nigoraxon Ikromjon qizi

Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabalari

Hayitov Xurshidbek

Abdumo'minov Akmaljon

Turdaliyev Shukurullo

khayitov0406@icloud.com

abdumominovakmaljon2@gmail.com

srkkreieiei@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarda uchraydigan o'tkir gerpetik stomatitga e'tibor qaratish va davolash choralari tahlil qilingan. Stomatit va uning etiologiyasi, epidimiologiyasi, patogenez, yengil, o'rta-og'ir og'ir shakllari, klinik kechishi haqida ma'lumot beriladi. Shu kasallik bo'yicha aholiga ko'rsatilayotgan xizmatining sifati yoritilgan.

Kalit sozlar: *Anamnez, stomatit, virus, herpes, epidimiologiya, HSV, patogenez, intoksikatsiya*

Annotation: *This article focuses on acute herpetic stomatitis observed in children and analyzes its treatment measures. It provides information about stomatitis, including its etiology, epidemiology, pathogenesis, as well as its mild, moderate, and severe forms and clinical course. The quality of healthcare services provided to the population regarding this disease is also highlighted.*

Keywords: *Anamnesis, stomatitis, virus, herpes, epidemiology, HSV, pathogenesis, intoxication*

Аннотация: *В данной статье уделено внимание острому герпетическому стоматиту, встречающемуся у детей, и проанализированы меры его лечения. Приводится информация о стоматите, его этиологии, эпидемиологии, патогенезе, а также о лёгкой, средней и тяжёлой формах и клиническом течении заболевания. Также освещается качество медицинских услуг, предоставляемых населению по данному заболеванию.*

Ключевые слова: *Анамнез, стоматит, врус, герпес, эпидимиология, ВПГ, патогенез, интоксикация*



KIRISH

O'tkir gerpetik stomatit tushunchasi va ta'rifi

Kasallikning ahamiyati va dolzarbligi

Kasallikning tarqalishi va yosh guruhiga oid ma'lumotlar

Bolalarda o'tkir gerpetik stomatit — og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining yallig'lanishi, pufakchalar va og'riqli eroziyar hosil bo'lishi bilan kechadigan, herpes simplex virusining 1-turi (HSV-1) tomonidan chaqiriladigan infeksion kasallikdir. Ushbu kasallik asosan 6 oylikdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida keng tarqalgan bo'lib, bog'cha yoki maktabgacha yoshdagi bolalarda yuqori uchrash chastotasiga ega.

Kasallikning bosqichlari odatda to'satdan ko'tarilgan tana harorati, bolada umumiy holsizlik, og'riq sababli ovqatlanishning qiyinlashuvi, og'iz bo'shlig'ida ko'plab mayda pufakchalar va yara hosil bo'lishi bilan boshlanadi. O'tkir gerpetik stomatit nafaqat bolada jismoniy noqulaylik va og'riq keltiradi, balki suvsizlanish, ovqatlanish buzilishi, uyquning yomonlashuvi kabi asoratlar ham chaqirishi mumkin.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bolalarda ushbu kasallikning keng tarqalganligi, tez-tez qaytalashi va o'z vaqtida ko'rsatilmagan tibbiy yordamning og'ir asoratlarga olib kelishi xavfi mavjud. Shu sababli o'tkir gerpetik stomatitning etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik kechishi, tashxislash usullari hamda samarali davolash choralari haqida yetarli bilimga ega bo'lish muhim sanaladi

Stomatit turlari

1. virusli stomatitlar

Otkir gerpetik stomatit-bolalarda keng tarqalgan,og'riqli pufakchalar bilan kechadi.

Enterovirusli stomatit-ko'pincha bolalarda kuzatiladi,til va lablarda mayda yaralar hosil boladi

2.Bakterial stomatitlar

Streptokokli stomatit-og'iz boshlig'ida qizillik og'riq va pusli pufakchalar bilan kechadi.

Stafilokokli stomatit-og'iz bo'shlig'ida yallig'lanish og'riq vapusli pufakchalar bilan namoyon bo'ladi

3.Zamburug'li stomatit

Kandidoz stomatit(so'lak kasalligi)-oq rangli qalin qatlamlar til,og'iz ichida paydo bo'ladi,og'riq bilan kechadi

4. Alergik stomatit

Allergik reaktsiya natijasida og'iz bo'shlig'ida qizillik, shish, noqulaylik paydo bo'ladi.

Ko'pincha ovqat, dori yoki mahsulotga allergiya bilan bog'liq.



5. Mexanik va kimyoviy stomatit

Til yoki ogʻiz shilliq qavatining shikastlanishi (til til, qattiq ovqatlar)

Kimyoviy moddalar (masalan, tish pastasi yoki antiseptik vositalar) taʼsirida hosil boʻladi.

Etiologiyasi (sababi)

Oʻtkir gerpetik stomatit (OGS) — bolalarda ogʻiz boʻshligʻi shilliq qavatining yalligʻlanishi va ogʻriqli pufakchalar hosil boʻlishi bilan kechadigan infeksiyon kasallik boʻlib, uning asosiy sababi Herpes simplex virus 1-turi (HSV-1) hisoblanadi. HSV-1 DNK viruslar oilasiga kiradi va inson organizmida oʻtkir infektsiya chaqirib, keyinchalik yashirincha saqlanish xususiyatiga ega. Virus shilliq qavat hujayralariga kirib, tez koʻpayadi va ogʻriqli pufakchalar hosil qiladi. Infektsiyadan soʻng HSV-1 nerv tugunlarida yashirincha saqlanadi va immunitet pasayganda qayta faollashishi mumkin.

Bolalarda HSV-1 quyidagi yoʻllar orqali yuqadi:

1. Bevosita kontakt — bolani oʻpish yoki yuqqan shaxs bilan ogʻzaki kontakt.

2. Iflos qoʻllar — virus bilan ifloslangan qoʻlni ogʻizga olib qoʻyish.

3. Oʻyinchoqlar va kundalik buyumlar — virus yuqqan narsalarni ishlatish orqali.

4. Ovqat va idish-tovoqlar — yuqimli odam ishlatgan idishlar orqali virusning yuqishi mumkin.

Virusning organizmida yashirincha saqlanishi va qaytalanish xususiyati OGSni nafaqat bir martalik, balki takrorlanuvchi kasallik sifatida ham namoyon boʻlishiga sabab boʻladi. Shu bilan birga, bolalarda kasallik rivojlanish xavfini oshiradigan omillar mavjud: yosh (6 oylikdan 5 yoshgacha), immunitet pasayishi, stress, yetarli ovqatlanmaslik va yuqimli bolalar bilan yaqin kontakt.

Shu tarzda, etiologik omil — HSV-1 va uni yuqitadigan kontakt omillari boʻlib, bolalarda oʻtkir gerpetik stomatitning rivojlanishida asosiy rol oʻynaydi. Shu bilimlar asosida profilaktika va davolash choralarini toʻgʻri belgilash mumkin.

Epidemiologiyasi

Oʻtkir gerpetik stomatit (OGS) bolalar orasida keng tarqalgan infeksiyon kasallik hisoblanadi. Epidemiologik maʼlumotlarga koʻra, kasallik asosan 6 oylikdan 5 yoshgacha boʻlgan bolalarda uchraydi. Bu yoshdagi bolalarda immunitet tizimi hali toʻliq rivojlanmaganligi sababli, virusga nisbatan sezgirlik yuqori boʻladi.

Kasallik koʻpincha bogʻcha va maktabgacha taʼlim muassasalarida tez tarqaladi. Bolalar bir-biri bilan yaqindan muloqot qiladi, oʻyinchoqlarni



umumiy ishlatadi va gigiyena qoidalariga yetarlicha rioya qilmaydi. Shu sababli OGS yuqish ehtimoli oshadi.

Mavsumiy jihatdan, kasallik kuz va qish oylarida ko'proq uchraydi. Bu davrda bolalar ichki muhitlarda ko'p vaqt o'tkazadi, viruslar havo tomchilar orqali osongina yuqadi, va immunitet pasayishi tufayli kasallikning tarqalishi tezlashadi.

Epidemiologik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar orasida OGSning yuqish tezligi yuqori bo'lib, bir marta yuqqan bolada virus organizmda yashirinchsa saqlanadi va immunitet pasayganda qaytalanishi mumkin. Shu sababli kasallikni vaqtida aniqlash, davolash va profilaktik choralarni ko'rish juda muhimdir.

Patogenezi (Kasallik rivojlanish mexanizmi)

Herpes simplex virus–1 (HSV-1) ning organizmga kirishi, ko'payishi va immun tizimning unga nisbatan javob reaksiyalari bilan bog'liq. Kasallikning og'irligi bolaning yoshiga, virus yuklamasiga hamda immun tizimining rivojlangan darajasiga qarab belgilanadi.

1. Virusning kirishi

HSV-1 viruslari odatda quyidagi yo'llar orqali organizmga kiradi:

Og 'iz shilliq qavatining mikroshikastlanishlari, o'yinchoqlar, iflos qo'l, idish-tovoqlar orqali, bemor bilan yaqin kontakt (o'pish, so'lak orqali).

Virus birinchi bo'lib og'iz shilliq qavati epitelial hujayralariga yopishadi va shu hujayralar ichida ko'paya boshlaydi.

2. Virusning ko'payishi va hujayrani shikastlashi HSV epitelial hujayralar ichida tez ko'payadi. Bu jarayon hujayraning parchalanishiga, mayda seroz pufakchalar hosil bo'lishiga, pufakchalar yorilib, eroziya va yaralar paydo bo'lishiga olib keladi.

Shilliq qavatdagi bu jarayon og'riq, achishish, ovqat yeyishda qiynalish bilan namoyon bo'ladi.

3. Virusning nerv tugunlariga joylashishi virus faollashganidan so'ng uch shoxli nerv (nervus trigeminus) tuguniga o'tadi, u yerda latent holatda (yashirin) qoladi.

Bu holat kasallikning keyinchalik yana qaytalanishiga sabab bo'ladi.

4. Organizmning immun javobi virusga qarshi immun javob ikki bosqichda kechadi:

A. Mahalliy immuni javobi:

Shilliq qavat yallig'lanadi.

Qon tomirlari kengayadi.

Shish, qizarish, og'riq kuzatiladi.

B. Umumiy immuni javobi



Organizm virusga qarshi kurashda: isitmaning ko'tarilishi, limfa tugunlarining kattalashishi, umumiy holsizlik paydo bo'lishi bilan javob beradi.

5. Og'ir shakllarning shakllanish mexanizmi

Agar bola yosh bo'lsa yoki immunitet past bo'lsa: virus tez ko'payadi, yara soni ko'payadi (10–20 dan ortiq), bola og'riqdan ovqat yemaydi → organizmning suvsizlanish xavfi oshadi, ba'zan ikkilamchi bakteriyal infektsiya qo'shilishi mumkin.

Klinik belgilari va shakllari

Bolalarda OGSning uchta klinik shakli mavjud:

Yengil shakl: isitma past ($37-37,5^{\circ}\text{C}$), og'izda 2–3 ta yara, umumiy ahvol yaxshi.

O'rta og'ir shakl: isitma $38-39^{\circ}\text{C}$, ko'p sonli yara, limfa tugunlarikattalashadi, bolalar ovqatdan bosh tortadi.

Og'ir shakl: isitma $39-40^{\circ}\text{C}$, 10–20 dan ortiq yara, kuchli og'riq, suvsizlanish xavfi.

Umumiy simptomlar: og'riq, so'lak oqishi, og'izdan hid kelishi, ovqat yemay qo'yish, charchoq va uyqusizlik.

Tashxis

Tashxis asosan klinik belgilar asosida qo'yiladi. Laborator tekshiruvlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

PCR testi — HSV mavjudligini aniqlash

Qon tahlili — yallig'lanish belgilarini aniqlash

Diferensial tashxis boshqa stomatit turlari bilan farqlash uchun zarur.

Davolash choralari

OGSni davolashda quyidagi choralar qo'llaniladi:

Umumiy tavsiyalar: gigiyena qoidalariga rioya qilish, ko'p suyuqlik ichirish, yumshoq ovqatlar berish.

Virusga qarshi dorilar: atsiklovir (shifokor nazorati ostida).

Og'riqni kamaytirish: paratsetamol yoki ibuprofen.

Mahalliy vositalar: og'izni antiseptik chayish vositalari, gel va malhamlar.

Og'ir holatlarda shifokor nazorati va kasalxonaga yotqizish talab qilinishi mumkin.

Asoratlari

Suyuqlik yetishmovchiligi (dehidratatsiya)

Ikkilamchi bakterial infektsiya

Kamdan-kam hollarda ko'z yallig'lanishi (keratit)

Oldini olish

Qo'l yuvish va gigiyena qoidalariga rioya qilish

Yuqimli shaxslar bilan kontaktdan saqlanish

Bolaning immunitetini mustahkamlash



O'yinchoqlarni dezinfeksiya qilish

Mulohaza

Hozirgi kunda ko'plab insonlar gigiyena qoidalarini bilsada, amaliyotda unga to'liq amal qilmaydi. Ayniqsa, yangi tug'ilgan chaqoloqni labidan optirmang chunki gigiyenik jihatdan to'g'ri emas va bu boradagi beparvolik keyinchalik bolada stomatit bilan kasallanish havfi bo'ladi va ko'p hollarda bola nobud bo'ladi yoki nogiron bo'lib qolishi mumkin Shuning uchun oilada, maktabda va tibbiyot muassasalarida gigiyenaning ahamiyati haqida tushuntirish ishlarini kengaytirish zarur.

XULOSA

Bolalarda o'tkir gerpetik stomatit keng tarqalgan, tez-tez uchraydigan infeksion kasallikdir. Kasallikning og'ir asoratlarini oldini olish uchun vaqtida tashxis va davolash muhimdir. Shuningdek, profilaktika choralariga, gigiyena va immunitetni mustahkamlashga e'tibor qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Murtazayev, S. S., Maxsumova, S. S., va boshqalar. (2018). Bolalar og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklari. Darslik.
- 2.Sattorov.A.S., va boshqalar.(2009) mikrobiologiya va virusologiya. Darslik